



KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI–FAROVON
HAYOT GAROVI

Shaymardanov Asilbek Shoyimnazar o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari va huquq

ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

+99890 073 46 44

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayni damda globallashuv davridagi erkin va barqaror hayotimizni o'rnatishdagi asosiy omil sifatida qaralishi, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi, milliy qadriyatlarimiz, adolatli fuqarolik jamiyati, ijtimoiy demokratik huquqiy davlat qurish va inson hayotini e'zozlash, sha'ni intellektual mulk huquqi, qadr-qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatligini ochib berish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, qonun ustuvorligi, sud-huquq islohotlari, inson huquqlari, erkinlik, demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati*

Annotation. *This article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan at the present time as a key factor in establishing our free and stable life in the era of globalization, in ensuring the rights, freedoms and social justice of citizens, in realizing our national values, building a just civil society, a Social democratic rule of law and respect for human life, protecting honor, intellectual property rights, dignity and other inviolability. The point is that rights are considered the highest value.*

Keywords: *Constitution, rule of law, judicial and legal reform, human rights, freedom, democratic rule of law, civil society*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, mazmuni, har bir qoidasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan



demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analarini o'zida to'la mujassamlashtirgan. Har qanday demokratik jamiyatning taraqqiyoti mustahkam huquqiy poydevorga tayanadi. Mazkur poydevorning markazida esa davlatning "asosiy qonuni" — Konstitutsiya turadi. U nafaqat davlat tuzilishi va boshqaruv tizimini belgilovchi hujjat, balki fuqarolarning erkin, xavfsiz va farovon hayot kechirishini ta'minlovchi konstitutsiyaviy kafolatlar majmui hisoblanadi. Ya'ni "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega".[2] Shuning uchun ham Konstitutsiya jamiyatda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va barqaror taraqqiyotning asosiy kafolati sifatida e'tirof etiladi. "Biz bugun O'zbekistonning yangi tarixini yozamiz. Ushbu Konstitutsiya — bu yangi O'zbekiston Konstitutsiyasidir. U inson manfaatlari va huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi tamoyiliga asoslanadi. Bu nafaqat qonun hujjati, balki mamlakatimiz kelajagining rivojlanish dasturidir" deya ta'riflagan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish bugungi sud-huquq islohotlarining yetakchi mezonidir. Ushbu tamoyil nafaqat sud tizimining mustaqilligini ta'minlaydi, balki adolatli qarorlar chiqarilishi va fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqlarining real ishlashiga xizmat qiladi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatda shaxsning huquq va erkinliklari davlat tomonidan cheklanmaydi, aksincha konstitutsiyaviy kafolatlar asosida himoya qilinadi. Natijada sud-huquq tizimi demokratik jamiyat barpo etishda muhim amaliy kuchga aylanadi. "Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish".[4]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15–16-moddalari mazmunida davlat organlari va mansabdor shaxslarning barcha qaror va



harakatlari faqat qonunga tayanishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy talab amaliyotda ma'muriy sudlar faoliyatini rivojlantirish, davlat organlari ustidan samarali sud nazoratini joriy etish va fuqarolarning buzilgan huquqlarini tez tiklash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ma'muriy adliyaning takomillashuvi davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda adolatni mustahkamlab, "xalq – davlat uchun emas, davlat – xalq uchun" tamoyilining hayotga joriy etilishiga zamin yaratadi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi ham Konstitutsiyaning muhim talablaridan biri bo'lib, 106–112-moddalar mazmunida sudlarning siyosiy yoki ma'muriy bosimlardan xoli bo'lishi qat'iy belgilangan. Mustaqil sud tizimi — adolatning amaliy kafolati bo'lib, uning ochiqligi fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi, jarayonlarning shaffof bo'lishini ta'minlaydi va odil sudlovning ta'sirchanligini oshiradi. So'nggi yillarda sudlarda elektron tizimlarning joriy etilishi, ochiq sud majlislari, advokatlar faoliyatining kengayishi sud hokimiyatining ochiqlik tamoyilini yanada mustahkamladi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 20–27 va 33–44-moddalari mazmuni inson sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi, mulkiy huquqi, fikr bildirish huquqi, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida belgilaydi. Inson manfaatlarini ustuvor qo'yish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ham tubdan o'zgartirdi: jazolash amaliyotidan ko'ra, huquqlarni tiklash, profilaktika ishlari, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va adolatni qaror toptirish ustuvor vazifa sifatida shakllandi. Shu bilan birga, fuqarolarning sudga murojaat qilish, o'z huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kengaytirish huquqiy davlat qurishning asosiy sharti bo'lib qolmoqda.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu sohadagi eng ustuvor vazifamiz – O'zbekiston dunyodagi "qonun ustuvorligi indeksi" yuqori darajada bo'lgan davlatlar qatoriga kirishini ta'minlash va aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirishdan iborat"[5]

Demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati Konstitutsiyaning 2, 32 va 58-moddalari mazmunida davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishi,



fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etishi va jamoat tashkilotlarining jamiyat taraqqiyotidagi rolini mustahkamlaydi. Ushbu tamoyillar yangi O'zbekistonning siyosiy tizimini modernizatsiya qilishda, ijtimoiy faollikni oshirishda va jamiyatda adolat tamoyillarini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20–27 va 106–112-moddalari inson sha'ni, qadr-qimmatini va sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlaydi. Shu tamoyillar advokatura institutining salohiyatini oshirish va malakali huquqiy yordam tizimini rivojlantirishning huquqiy asosini yaratadi. Advokatlar mustaqil faoliyat yuritishi va kasbiy malakasi oshirilishi orqali fuqaro sudda o'z huquqlarini samarali himoya qilishi mumkin. Shu bilan birga, bepul va sifatli huquqiy yordam tizimi Konstitutsiyaviy kafolatlarni amalda tatbiq etadi, huquqiy madaniyatni oshiradi va jamiyatda adolatning mustahkam poydevorini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15–16 va 54-moddalari davlat organlari faoliyati qonun ustuvorligi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga tayanishini belgilaydi. Shu normalar korrupsiyaga qarshi tizimni mustahkamlash va jamiyatda murosasiz munosabatni shakllantirishning huquqiy asosini yaratadi. Davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va jamoat faolligi orqali korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish samaradorligi oshiriladi, fuqarolarda huquqiy ong va adolatga ishonch mustahkamlanadi. Misol uchun "Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'radi"[6]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga ko'ra, mamlakat dunyodagi murakkab siyosiy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olib, ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo'shnichilik tashqi siyosatini amalga oshiradi. Bu prinsip qo'shni davlatlar bilan barqaror va strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, siyosiy,



iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlarda ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borishning huquqiy asosini yaratadi.

18-modda esa O‘zbekistonni xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida belgilaydi. Shuningdek, tashqi siyosat davlatlar suvereniteti, hududiy yaxlitlik, kuch ishlatmaslik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyillariga tayanishi kafolatlanadi. Shu normalar doirasida O‘zbekiston xalq va davlatning oliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantiradi, ittifoqlar tuzadi, hamdo‘stliklarga kiradi yoki ulardan chiqadi, hamda mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha doimiy va muvozanatli muloqotlarni olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi demokratik-huquqiy davlat barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratadi. Konstitutsiyadagi inson sha’ni, qadr-qimmatini va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’tirof etuvchi normalar zamonaviy islohotlarning yo‘nalishini belgilab bermoqda. Sud hokimiyatining mustaqilligi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqqligi, ma’muriy adliyaning shakllanishi hamda qonun ustuvorligining ta’minlanishi – bularning barchasi Konstitutsiyaning amalda ishlashini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini real kafolatga aylanishini ta’minlamoqda.

Yangi O‘zbekistonning asosiy qonuni — bu faqat davlat tuzilishini belgilovchi hujjat emas, balki jamiyatning erkin, demokratik va barqaror rivojlanish strategiyasidir. Konstitutsiya hayotiyiligini namoyon qilayotgan bugungi islohotlar mamlakatning kelajak taraqqiyotining ishonchli huquqiy asosini shakllantirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 yil <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 8 moddasi – BMT,10.12 1948.yil



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy islohotlar to'g'risidagi qonunlarni imzolash marosimidagi nutqi. 2023-yil 30-aprel. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6166>
4. Taraqqiyot - 2030 strategiyasi <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonun 16 modda <https://lex.uz/mact/-3088008>
7. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.